



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 125-132 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINING SIFATINI BAHOLASH VA RISKLARNI BOSHQARISH



Doston O'ktam o'g'li Toshtemirov

Mustaqil tadqiqotchi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali,

e-mail: xisobot@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari kredit portfelining sifatini baholash va kredit risklarini samarali boshqarish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotda bank kredit portfeli sifati bank moliyaviy barqarorligi, likvidligi va daromadlilikini ta'minlashdagi muhim omil sifatida ko'rib chiqilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida kredit portfelini baholashning nazariy-uslubiy asoslari, kredit risklariga ta'sir etuvchi omillar, muammoli kreditlarning yuzaga kelish sabablari hamda ularni kamaytirish mexanizmlari yoritib berilgan. Shuningdek, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, kredit siyosatini takomillashtirish, muammoli kreditlarni erta aniqlash va ularni boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit portfeli, kredit portfeli sifati, kredit risklari, muammoli kreditlar, kredit siyosati, diversifikatsiya, bank moliyaviy barqarorligi.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы оценки качества кредитного портфеля коммерческих банков и эффективного управления кредитными рисками. В исследовании качество кредитного портфеля рассматривается как один из ключевых факторов обеспечения финансовой устойчивости, ликвидности и доходности банков. На основе анализа научной литературы раскрыты теоретико-методологические основы оценки кредитного портфеля, факторы, влияющие на уровень кредитных рисков, причины возникновения проблемных кредитов, а также механизмы их снижения. Кроме того, разработаны практические рекомендации по диверсификации кредитного портфеля, совершенствованию кредитной политики, раннему выявлению и управлению проблемными кредитами.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитный портфель, качество кредитного портфеля, кредитные риски, проблемные кредиты, кредитная политика, диверсификация, финансовая устойчивость банка.

Abstract. This article examines the issues of assessing the quality of commercial banks' credit portfolios and effectively managing credit risks. The study considers credit portfolio quality as a key factor in ensuring banks' financial stability, liquidity, and profitability. Based on an analysis of scientific literature, the theoretical and methodological foundations of credit portfolio assessment, factors influencing credit risk levels, causes of non-performing loans, and mechanisms

for their reduction are analyzed. In addition, practical recommendations are developed for credit portfolio diversification, improvement of credit policy, early identification, and management of problem loans.

Keywords: commercial banks, credit portfolio, credit portfolio quality, credit risks, non-performing loans, credit policy, diversification, bank financial stability.

1. Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishi, avvalo, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, bank-moliya tizimini isloh qilish, uning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy sohadagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va risklarni samarali boshqarish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda respublika bank tizimi, jumladan tijorat banklari faoliyati iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy raqobat muhitida shakllanib, bank xizmatlarini erkinlashtirish jarayonlari jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Banklararo raqobatning kuchayishi sharoitida banklar o'z resurslaridan oqilona foydalanish, kredit operatsiyalarining sifatini oshirish va muammoli kreditlar ulushini kamaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mazkur jarayonda kredit portfelini baholash va uni samarali boshqarish bank faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Kredit portfelini to'g'ri baholash orqali tijorat banklari o'z moliyaviy barqarorligini ta'minlash, likvidlik darajasini saqlash hamda daromadlilikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, bank faoliyatini erkinlashtirish va raqobatni kuchaytirish sharoitida kredit portfelini baholashning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish hamda amaliyotdagi muammolarni aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy adabiyotlarda kredit portfeliga bank tomonidan joylashtirilgan barcha kreditlar yig'indisi sifatida ta'rif beriladi. Jumladan, Rose va Hudgins kredit portfelini bank aktivlarining eng daromadli, biroq eng yuqori riskka ega qismi sifatida baholaydi va uni samarali boshqarish kredit risklarini diversifikatsiya qilish bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi [1].

Saunders va Cornett ishlarida kredit portfelini boshqarish jarayoni aktivlar va passivlarni muvofiqlashtirish, qarz oluvchilarni baholash, defolt ehtimolini aniqlash hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirish bilan izohlanadi. Mualliflar kredit portfelining sifatini baholashda NPL (non-performing loans) ko'rsatkichi asosiy indikator ekanini ta'kidlaydilar [2].

Abalkin L.I., Panova G.S. hamda boshqa qator iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklarining kredit portfeli kreditlarning sifat ko'rsatkichlari va tarkibiy xususiyatlariga asoslangan holda shakllantirilgan tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvda kredit portfelining mazmun-mohiyatini ochib berishga nisbatan ijobiy qarash namoyon bo'ladi [3].

Mazkur ta'rifning afzal tomoni shundaki, unda kreditlarning sifatiga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda ularni muayyan belgilar asosida guruhlash zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa kredit portfelini baholash va boshqarish jarayonida risklarni aniqlash hamda kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish imkonini beradi

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham tijorat banklari kredit portfeli masalalari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Sh.Z. Abdullaeva bank kredit portfelini turli darajadagi kredit risklarini hisobga olgan holda, muayyan mezonlar asosida guruhlashtirilgan kreditlar bo'yicha bank talablarining umumiy majmuasi sifatida tavsiflaydi [4].

A. Azlarova va M. Abduraxmanova tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, bank kredit portfeli bankning kreditlash faoliyatini amalga oshirishda asosiy poydevor vazifasini bajaradi hamda u bank tomonidan ajratilgan barcha kredit resurslarining umumiy hajmini qamrab oladi [5]. Mualliflarning mazkur ta'rifi kredit portfelini bank kredit operatsiyalarining yig'indisi sifatida talqin etib, uni bank faoliyatida muhim strategik aktiv sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit portfelini samarali boshqarish bank faoliyatining markaziy masalalaridan biri bo'lib, u risklarni kamaytirish, daromadlilikni oshirish hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari kredit portfelini baholash va uni takomillashtirish masalalarini o'rganishda umumiy ilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlar tahlili usuli orqali kredit portfelini boshqarish va baholashga oid mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari o'rganildi hamda umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalarini asoslash maqsadida mantiqiy tahlil va ekspert baholash usullari qo'llanilib, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, kredit risklarini kamaytirish va bank moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

4. Tahlil va natijalar

Bank faoliyatida raqobatning xarakteri bozor munosabatlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Hozirgi kunda tijorat banklari o'rtasida raqobatning kuchayishi ulardan faoliyatni samarali tashkil etishni, ayniqsa, puxta ishlab chiqilgan kredit siyosatini shakllantirishni talab etmoqda. Kuchli raqobat sharoitida banklar o'z resurslaridan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Bugungi iqtisodiy sharoitda tijorat banklari yetarli resurs mablag'lariga ega bo'lish, mavjud mablag'larni eng kam risk asosida joylashtirish hamda kredit operatsiyalari orqali barqaror daromad olishni maqsad qilmoqda. Biroq, daromadlilikka intilish kredit operatsiyalari bo'yicha risk darajasining oshishiga olib kelishi mumkin, chunki banklar asosan jalb qilingan mablag'lar hisobidan faoliyat yuritadilar.

Shu sababli, banklar bir vaqtning o'zida ham aksiyadorlar, hamda o'z mablag'larini ishonib topshirgan mijozlar oldida moliyaviy javobgar hisoblanadi. Bu holat bank

faoliyatida risklarni samarali boshqarish va kredit siyosatiga qat'iy rioya etishni talab qiladi.

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarining samarali amalga oshirilishi, avvalo, kredit siyosatining qay darajada to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq. Har bir bank mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, moliya bozoridagi o'zgarishlar hamda o'z ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda kredit siyosatini ishlab chiqishi lozim.

Oqilona shakllantirilgan kredit siyosati bank kredit portfeli sifatini oshirish, kredit risklarini kamaytirish hamda bank moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, kredit portfelini baholash tizimi bank kredit siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Hozirgi davrda tijorat banklari kredit portfelini baholash bank faoliyati samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit portfelini baholashning asosiy vazifalari sifatida, avvalo, kredit riski darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni kompleks baholash, ssudalarni risk darajasi bo'yicha tasniflash hamda kredit portfelini risklar, mijozlar tarkibi va kredit qo'yilmalari bo'yicha optimallashtirish masalalarini ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini baholash, uning moliyaviy holatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni prognoz qilish, muammoli ssudalarni erta aniqlash ham kredit portfelini baholashning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bunda yaratilayotgan zahiralarining yetarliligini baholash va ularni o'z vaqtida to'g'rilab borish alohida ahamiyatga ega.

Kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidliligi va daromadlilikini ta'minlash orqali bank kredit portfelining sifati oshiriladi. Shu asosda bankning kredit siyosati ishlab chiqiladi va kredit portfeli tahlili natijalariga muvofiq ravishda takomillashtirib boriladi.

Yuqoridagi tamoyillarga rioya qilish tijorat banklarining kredit faoliyati samaradorligini oshiradi va moliyaviy natijalarining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Kuchli raqobat sharoitida kredit menejmentiga alohida e'tibor qaratish bankning bozorda barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur hisoblanadi. Chunki tijorat banklari daromadining asosiy qismi, ya'ni taxminan 80–85 foizi kredit operatsiyalari hisobiga to'g'ri keladi. Shu bois, har bir bank aniq maqsadga yo'naltirilgan kredit siyosatiga va kredit portfelini samarali boshqarish mexanizmiga ega bo'lishi shart.

Hozirgi sharoitda bank kredit portfelini baholashda uchrayotgan muammolar, asosan, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida iqtisodiyotda mavjud bo'lgan institutsional va tashkiliy kamchiliklar bilan bog'liqdir. Ushbu muammolar kredit risklarining ortishiga hamda bank faoliyati samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Jumladan, kredit risklarining yuzaga kelishida bank tomonidan aniq va puxta ishlab chiqilgan kredit siyosatining mavjud emasligi yoki uning ortiqcha agressiv tarzda shakllantirilishi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, kreditlarning aktivlar tarkibidagi ulushi me'yordan oshib ketishi (65 foizdan yuqori) bank portfeli barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tarmoqlar va operatsiyalar bo'yicha diversifikatsiyaning yetarli darajada ta'minlanmasligi, blankli kreditlar hamda insayderlar bilan tuzilgan shartnomalar ulushining yuqoriligi ham risk darajasini oshiradi.

Kredit portfelini baholashdagi muammolar qatoridan bank xodimlarining yuridik va moliyaviy tahlil sohasida yetarli malakaga ega emasligi, garov ta'minotining noto'g'ri tanlanishi va uni realizatsiya qilish mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ham ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, mijozlar to'g'risida to'liq va ishonchli axborot bazasining yo'qligi, rahbarlar tez-tez almashib turadigan korxonalarga kredit ajratish ham qo'shimcha risklarni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, kredit portfelining muayyan tarmoqqa yuqori darajada jamlanib qolishi, moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishga yuzaki yondashish, kredit summasi va muddatini belgilashdagi xatoliklar, shuningdek, kredit so'ndirilishi jarayonida yetarli monitoringning olib borilmasligi kredit portfeli sifatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Yangi tashkil etilgan yoki tajribasi yetarli bo'lmagan sub'ektlarga kredit berish, ta'minot qiymatining asossiz ravishda yuqori baholanishi ham amaliyotda dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

Yuqorida qayd etilgan muammolar hozirgi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan barcha tijorat banklari uchun umumiy va dolzarb hisoblanib, kredit portfelini baholash va boshqarish tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Banklarning kredit faoliyatini tekshirish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, banklarda mavjud ichki me'yoriy hujjatlar va ularda belgilangan kreditlash tartibotlari har doim ham muammoli kreditlar paydo bo'lishining oldini to'liq olish imkonini bermayapti. Garchi kredit bo'limi to'g'risidagi nizomlar, vakolatlar taqsimoti, kredit berish tartibi, Kredit qo'mitasi faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar bankda kredit jarayonlarini tizimli tashkil etishga xizmat qilsa-da, amaliyotda ularning ijrosi yetarli darajada ta'minlanmayapti. Bu esa kredit qarorlarini qabul qilishda sub'ektiv yondashuvlarning kuchayishiga olib kelmoqda.

Amaliyotda yirik hajmdagi kreditlarning bank aksiyadorlari yoki bankka aloqador shaxslarga ajratilishi holatlari ham uchramoqda. Bunday hollarda, ko'pincha, zarur hujjatlar to'liq rasmiylashtirilmasdan yoki o'zaro kafolatlar asosida kreditlar taqdim etiladi. Natijada mazkur kreditlar o'z vaqtida qaytarilmay, muammoli kreditlar toifasiga o'tadi hamda ularning muddatlari bir necha bor uzaytirilishiga to'g'ri keladi.

Kredit ta'minotini rasmiylashtirish jarayonida ham qator kamchiliklar mavjud. Xususan, garov sifatida taqdim etilgan mol-mulkning huquqiy maqomi to'liq tekshirilmasligi, garov predmetiga doir sertifikatlar, baholash hujjatlari va sug'urta polislarining yetarli darajada rasmiylashtirilmasligi holatlari aniqlanmoqda. Ayrim hollarda sug'urta badallari o'z vaqtida to'lanmagani sababli sug'urta shartnomalari yuridik kuchga ega bo'lmay qolmoqda, bu esa kredit qaytmaslik xavfining amalda sug'urtalanmagan bo'lib qolishiga olib keladi.

Bundan tashqari, ayrim sug'urta kompaniyalarining o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligi ham bank kredit risklarining ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat bank kredit portfeli sifatining pasayishi va muammoli kreditlar ulushining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlar, tijorat banklarining kredit siyosatlarini hamda ichki kredit tartibotlari talablariga qat'iy rioya etish, shuningdek, kredit jarayonlari ustidan nazoratni kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Kredit portfelini tavakkalchiliklar bo'yicha diversifikatsiyalash tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda kreditlarni turli iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha joylashtirish, kredit muddatlarining mutanosibligini ta'minlash, muddati o'tgan kreditlar ustidan nazoratni kuchaytirish hamda muammoli kreditlar bo'yicha yetarli zaxiralarni shakllantirish doimiy monitoring qilib borilishi lozim. Ushbu chora-tadbirlar bank kredit portfeli sifatining yomonlashuvi oldini olishga xizmat qiladi.

Respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklari kreditlash jarayonini optimallashtirish maqsadida o'z kredit portfellarini muntazam va chuqur tahlil qilib borishlari zarur. Bu, o'z navbatida, kredit risklarini erta aniqlash va ularni samarali boshqarish imkonini beradi.

Kreditlarning qaytarilish istiqbolini aniq baholash va ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish maqsadida muqobil harakatlar dasturini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Muammolarni o'z vaqtida aniqlash va tegishli choralarni ko'rish orqali muammoli kreditlarning bank uchun moliyaviy yo'qotishlarga aylanishining oldini olish mumkin.

Shu bilan birga, ayrim holatlarda ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida, ko'rilgan barcha choralarga qaramasdan, muammoli kreditlar bo'yicha faqat undirish strategiyasini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Kredit berish shartlari va muammoli ssudalarning yuzaga kelish sabablari turlicha bo'lgani bois, har bir muammoli kreditga individual yondashuv talab etiladi. Biroq, shu bilan birga, muammoli kreditlarni undirish bo'yicha yagona tizimli yondashuv mavjud bo'lishi lozim.

Kreditni undirish strategiyasini ishlab chiqishdan oldin mijozning moliyaviy ahvolini chuqur tahlil qilish, uning kelgusidagi rivojlanish istiqbolini baholash hamda garov ta'minotining joriy qiymatini aniqlash zarur. Undirish ehtimolini baholashda qo'shimcha kredit ajratish, qarzni zudlik bilan undirish, restrukturizatsiya qilish yoki foiz to'lovlari muddatini uzaytirish kabi muqobil variantlarni taqqoslab tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Muammoli kreditlarni undirish strategiyasini ishlab chiqish uchun bank tomonidan mijoz haqida yetarli va ishonchli ma'lumotlar to'planishi shart. Buning uchun mijozning joriy moliyaviy holatini mukammal tahlil qilish, bankning ichki resurslaridan samarali foydalanish yoki zarurat tug'ilganda mustaqil auditorlik tashkilotlarini jalb etish lozim. Bunda bank xodimlari va auditorlarning mijoz bilan uzviy hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Kredit shartnomalarini tuzish jarayonida ularning huquqiy va moliyaviy oqibatlari hujjatlarda aniq va ravshan aks ettirilishi lozim. Bunday oqibatlar, odatda, bank tomonidan qarzni undirish bo'yicha talab qo'yish huquqining mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga, tijorat banklari har bir alohida holatda mazkur huquqdan foydalanish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligini chuqur tahlil qilishi kerak.

Agar qarzni zudlik bilan undirish iqtisodiy jihatdan samarali bo'lmasa, kreditni restrukturizatsiya qilish shartlarini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xorijiy amaliyotda mijozning bir vaqtning o'zida bir necha bankdan kredit olish huquqiga ega ekanligi inobatga olinib, banklar qarz oluvchining boshqa moliya institutlaridan olgan kreditlari, ularning shartlari hamda ustuvorlik darajasi to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lishi talab etiladi.

Muammoli kreditlar bilan bog'liq holatlarni tahlil qilish va ekspert xulosalari asosida bank tomonidan aniq harakatlar strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. Bunda bank kreditni undirish uchun qolgan vaqtni aniq belgilab olishi hamda qo'llanayotgan choratadbirlar qarzning qaytarilish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlashi zarur. To'lovga layoqatsiz qarzdorlarga nisbatan huquqiy choralar qo'llanilishi yoki korxonani qayta tashkil etish hamda qarzni restrukturizatsiya qilish yo'li tanlanishi mumkin.

Qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashgan hollarda kredit shartlarini o'zgartirish restrukturizatsiya sifatida baholanadi. Bunda foiz stavkasini kamaytirish yoki foizlarni undirishdan voz kechish, asosiy qarz summasini qisqartirish, to'lov muddatini kechiktirish yoki uzaytirish, shuningdek, odatiy sharoitda qo'llanilmaydigan ayrim imtiyozlarni taqdim etish kabi choralar amalga oshirilishi mumkin.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, agar tijorat banki mijoz korxona faoliyatini saqlab qolish, unga yangi investorlarni jalb qilish va kelgusida rivojlanish imkoniyatini ta'minlashdan manfaatdor bo'lsa, muammoli kreditni undirish ehtimoli yuqori bo'ladi. Bunday holatlarda bank korxonaning tiklanish davrida ma'lum darajada moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, kreditlash jarayonida ishtirok etuvchi barcha kreditorlarning manfaatlari hisobga olinishi zarur.

Korxonani qayta tashkil etish muammoli kreditlarni undirish strategiyasining eng keng qo'llaniladigan usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda mijoz faoliyatini barqarorlashtirish maqsadida qo'shimcha moliyalashtirish choralari qo'llanilishi mumkin. Odatda, bunday holatlarda tijorat banklari berilgan kreditlar bo'yicha to'lov muddatlarini uzaytirish, foiz to'lovlarini kechiktirish yoki shartlarni yumshatishga rozilik bildiradi.

Ayrim hollarda banklar mijozning moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida qo'shimcha mablag'lar ajratishi yoki qarz summasining ma'lum qismini korxonaning joriy operatsiyalariga yo'naltirishi mumkin. Bu esa bank vakillarining korxona boshqaruvida ishtirok etishini ta'minlab, berilgan kreditlar ustidan nazoratni kuchaytirish imkonini beradi. Bank tomonidan kreditlar ustidan doimiy monitoring olib borilishi kreditning o'z vaqtida qaytarilishi, shartnoma talablariga rioya qilinishi va ularning muammoli kreditlar toifasiga o'tib ketmasligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, kreditlarni monitoring qilish orqali muammolarni erta aniqlash va ularga qarshi tegishli choralarni ko'rish imkoniyati yuzaga keladi. Agar kredit bo'yicha ehtimoliy muammolar oldindan aniqlansa, bank mijoz bilan hamkorlikda ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish choralari ishlab chiqishi mumkin.

Tijorat banklari, avvalo, berilgan kreditlardan foizlar hisobidan barqaror daromad olish va ortiqcha xarajatlarsiz foyda ko'rishdan manfaatdordir. Shu nuqtai nazardan, kreditlar ustidan keyingi nazorat nafaqat qarzdor faoliyatini kuzatish, balki kredit bo'limi xodimlarining bank kredit siyosatiga qay darajada rioya qilayotganligini baholashning ham muhim vositasi hisoblanadi.

5. Xulosa va takliflar

Tijorat banklari kredit portfelini baholashning asosiy yo'nalishlari sifatida kredit risklari darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularni kompleks baholash va bartaraf etish, shuningdek, qarz oluvchining kreditga layoqatligini hamda moliyaviy ahvolini tahlil qilish orqali kredit risklarini prognoz qilish masalalarini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, muammoli ssudalarni erta aniqlash va ularni so'ndirish bo'yicha samarali

chora-tadbirlarni ishlab chiqish kredit portfelini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidligi va daromadlilikini ta'minlash, kredit olgan mijozlar bilan doimiy aloqa o'rnatish hamda kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash kredit portfelining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish maqsadida, tijorat banklari kredit portfeli diversifikatsiyasini kengaytirish, kredit qo'yilmalaridan samarali foydalanish orqali banklarning universallashtirishini va raqobatbardoshligini oshirish zarur. Bu esa kredit risklarining pasayishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, kredit resurslarining tarmoqlar bo'yicha nomutanosib taqsimlanishi aktivlar xatarlilikini oshirishini inobatga olgan holda, resurslarni diversifikatsiyalashdan samarali foydalanish talab etiladi. Bank likvidligini ta'minlash va Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlarga rioya qilish maqsadida jalb qilingan va joylashtirilgan mablag'larni muddatlar bo'yicha muvofiqlashtirish bank kredit operatsiyalarini rejalashtirishda muhim omil hisoblanadi. Bu orqali tijorat banklari zarur likvidlilik darajasini saqlagan holda yuqori daromadga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, bank kredit siyosati kredit resurslarining xatar darajasi, kreditlarning ta'minlanganlik holati, hududlar va tarmoqlar bo'yicha jamlanishi, shuningdek, kreditlash manbalari va mulk shakllari kesimida tizimli tahlilni o'z ichiga olishi lozim. Bu esa kredit portfelini samarali baholash va boshqarish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rose P. S., Hudgins S. C. Bank Management & Financial Services (9th Editio). – 2013.
2. Saunders, A. and Cornett, M.M. (2019) Financial markets and institutions /. 7th International ed. New York. N.Y.: McGraw-Hill.
3. Арзикулов О. А. Значение малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане - 2020. - Нет. 4. – С. 157-160
4. Абдуллаева ШЗ. Банк рисклари ва кредитлаш. Т.: Молия, 2002. 304 б. Б – 166.
5. Азларова А. А., Абдурахманова М. М. Тижорат банкларида кредит портфелини самарали бошқариш масалалари //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – 2018. – Т. 6.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

